



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб


Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Гулчеҳра Агзамова АШТАРХОНИЙЛАР СУЛОЛАСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲВОЛИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР (17-18-ЮЗЙИЛЛИК ЎРТАЛАРИ).....	5
2. Ильдар Азизов РАЗВИТИЕ МЕЖПАРЛАМЕНТСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С ПАРЛАМЕНТСКОЙ АССАМБЛЕЕЙ ОБСЕ.....	13
3. Farangis Azimova ЎРТА АСРЛАРДА ДАШТИ ҚИПЧОҚДА ЮЗ БЕРГАН СИЁСИЙ-ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ АМУДАРЁ – СИРДАРЁ ОРАЛИҒИДАГИ ВОҲАЛАРГА ТАЪСИРИ..	19
4. Феруза Амонова XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ҚОРАҚЎЛЧИЛИК ТАРИХИ (БУХОРО АМИРЛИГИ МИСОЛИДА).....	28
5. Ikrom Djurayev MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	34
6. Фарходжон Исматуллаев O‘ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXSHUNOSLIGINING AYRIM JIHLTLARI.....	41
7. Dilshod Komolov, Shodiyor Do‘smurodov O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA IDORALARINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI (1991-2000 yillar misolida).....	49
8. Dilshod Komolov, Murodali Xamdamov O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI.....	56
9. Pyosbek Mamatkarimov SOSIALISTIK REALIZMNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELISHI TARIXI.....	64
10. Yosin Ortiqov, Ra’no Ergasheva QO‘QON SHAHRI TARIXI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	69
11. Ибрагимжан Ташматов РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ (История и современность).....	74
12. Aziza Shotemirova IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SANOAT KORXONALARIDA O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING O‘RNI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	80



Фарходжон Одилжонович Исматуллаев,
Тошкент давлат педагогика университети,
тарих фанлари доктори(DSc), доцент
Электрон манзил: farhod.ismatullayev@mail.ru

ЎЗБЕКISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXSHUNOSLIGINING AYRIM JIHLTLARI

For citation: Farxodjon Ismatullayev. SOME ASPECTS OF THE HISTORIOGRAPHY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH THE EUROPEAN UNION. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 1, pp.41-48

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14803464>

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik aloqalari tarixshunosligining ayrim jihatlariga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga O'zbekiston tashqi siyosatining nazariy masalalariga oid ilmiy adabiyotlar ham tahlil etilgan. Muallif davlatchilik rivojida tashqi siyosatning ahamiyati, nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning rivojlanib borishi, bevosita shu masalaga oid ilmiy adabiyotlarning yaratilishi va unda ko'tarilgan g'oya va qarashlar bilan bog'liq jarayonlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan yoritishga harakat qilgan. Shuningdek, muallif O'zbekiston tashqi siyosatida Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik masalalariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarni ham atroflicha tadqiq etib, bu borada o'zining nuqtai nazarini bildirgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, tashqi siyosat, xalqaro aloqalar, Yevropa Ittifoqi, tarixshunoslik, ilmiy adabiyotlar, integratsiya, strategiya, maslahat uchrashuvi, BMT, ASEAN, TRASEKA.

Фарходжон Одилжонович Исматуллаев,
ТГПУ имени Низами,
доктор исторических наук, доцент
Elektron pochta: farhod.ismatullayev@mail.ru

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИОГРАФИИ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА С ЕВРОПЕЙСКИМ СОЮЗОМ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются некоторые аспекты историографии сотрудничества Узбекистана с Европейским Союзом. В то же время была проанализирована научная литература по теоретическим вопросам внешней политики Узбекистана. Автор попытался осветить с историографической точки зрения процессы, связанные с важностью внешней политики в развитии государственности, с развитием сотрудничества с авторитетными международными организациями, созданием научной литературы, непосредственно касающейся этого вопроса, и поднятыми в ней идеями и взглядами. Автор также подробно

рассмотрел научные исследования, посвященные вопросам сотрудничества с Европейским Союзом во внешней политике Узбекистана, и высказал свою точку зрения по этому вопросу.

Ключевые слова: Узбекистан, внешняя политика, международные отношения, Европейский Союз, историография, научная литература, интеграция, стратегия, консультативная встреча, ООН, АСЕАН, ТРАСЕКА.

Farhodjon Ismatullayev,

TSPU named after Nizami,

Doctor of historical sciences (DSc), associate professor

e-mail: farhod.ismatullayev@mail.ru

SOME ASPECTS OF THE HISTORIOGRAPHY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH THE EUROPEAN UNION

ABSTRACT

The article examines some aspects of the historiography of Uzbekistan's cooperation with the European Union. At the same time, the scientific literature on theoretical issues of Uzbekistan's foreign policy was analyzed. The author tried to highlight from a historiographical point of view the processes related to the importance of foreign policy in the development of statehood, the development of cooperation with reputable international organizations, the creation of scientific literature directly related to this issue, and the ideas and views raised in it. The author also reviewed in detail scientific research on cooperation with the European Union in Uzbekistan's foreign policy and expressed his point of view on this issue.

Index Terms: Uzbekistan, foreign policy, international relations, European Union, historiography, scientific literature, integration, strategy, consultative meeting, UN, ASEAN, TRACECA.

80-Dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik munosabatlari mustaqillik yillarida bir qator tarixchi, siyosatshunos, huquqshunos va boshqa soha vakillari tomonidan o'rganilib, ularning tadqiqotlarida hamkorlikning ayrim sohalariga oid muhim ma'lumotlar o'z aksini topgan. Shuningdek, sovet tuzumi yemirilib, uning o'rnida yangi mustaqil davlatlarning yuzaga kelishi va ularning bugungi kundagi faoliyati nafaqat mahalliy balki, ko'plab chet ellik olimlar tomonidan ham tadqiq etilmoqda. Ushbu maqolada ikki tomonlama hamkorlikni ayrim jihatlarini ilmiy adabiyotlar asosida tarixshunoslik nuqtai nazaridan taxlil qilishga harakat qilamiz.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada qo'yilgan masala mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan metodlar - tarixiylik, retrospektiv tahlil, sintez, xolislik tamoyillari asosida yoritishga harakat qilingan bo'lib, unda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarning tarixshunoslik masalalariga e'tibor qaratilgan.

Agar biz o'tgan o'ttiz yillik hamkorlik tarixini o'rganar ekanmiz, o'zaro aloqalarning u yoki bu tomonlari mahalliy ekspertlar, tarixchilar va siyosatchilar tomonidan tadqiq etilganligini ko'rishimiz mumkin. O'tgan davrda yaratilgan ilmiy asarlarda ko'proq O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasi va omillari, xalqaro maydonga chiqishi, xalqaro munosabatlarning zamonaviy shaklini yaratishdagi o'rni hamda jahon hamjamiyati mamlakatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli ko'p qirrali hamkorlik aloqalari masalalarini qamrab olingan. Ular orasida, eng avvalo, A.Kasimov, L.Petrova, I.Vaskin, A.Akilov, A.Rasulev va A.Bedrinsev, N.A. Kasimova, S.A.Jo'raevlarning [1] monografiyalarini tilga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan ushbu mualliflarning ishlarida respublikaning jahon hamjamiyatiga kirib borishi milliy mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, ularda mamlakat tashqi siyosatining shakllanishi va rivojlanishi masalalari ko'rib chiqilgan hamda mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va ustuvor yo'nalishlari yoritib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati va hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan monografik ishlar bir qator o‘zbekistonlik olimlar, jumladan, S.Sharapova [2], X.G.G‘ulomov va A.G.Xolliyev[3], A.Qirg‘izboyev[4], R.Dalimov, Z.Maxambetova, N.K.Xudyakova[5], E.Z.Nuriddinov[6], M.Babaxodjeyev[7], S.Safoyev[8], L.Babaxodjeyeva[9], Ch.Kucharov[10], R.Hakimov[11], M.Rahimov[12], R.Alimov[13], Sh.Arifxanov[14], I.Mavlanov[15], R.Farmonov, Q.Jo‘rayev[16], G‘.Mirzayev[17] va H. Yunusovlar[18] tomonidan nashr etilgan. Xususan, S.Sharapovning monografiyasida mustaqil O‘zbekistonning davlatlararo munosabatlar o‘rnatilishi bilan umumjahon tizimiga kirib borishining o‘ziga xos jihatlari, respublikaning tashqi siyosatiga tarixiy-ma‘naviy meros hamda milliy mentalitetning o‘ziga xosligi, madaniy qadriyatlar, mustaqillik mafkurasi kabi omillarning ta‘siri tahlil qilingan. X.G.G‘ulomov va A.G.Xolliyevlarning monografiyalarida O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida jahonning yirik mamlakatlari hisoblangan Buyuk Britaniya va AQSh bilan olib borgan teng huquqli aloqalari aniq daliliy ma‘lumotlar asosida yoritib berilgan. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi hamkorlik aloqalariga bag‘ishlangan A.Qirg‘izboyevning monografiyasida O‘zbekistonning Osiyo qit‘asidagi yetakchi davlatlar bilan ko‘p tomonlama hamkorligi keng ko‘lamda, daliliy materiallar jalb qilingan holda tahlil etilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Xalqaro hamkorlik munosabatlari borasida E.Z.Nuriddinovning tadqiqotlari alohida o‘rin egallaydi[19]. Unda O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy tuzilmalari bilan hamkorligi masalalari timsolida respublikada xalqaro faoliyat borasidagi yangi modelning shakllanishi va amalga oshirilishi batafsil bayon qilingan. Shuningdek, monografiyada O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik aloqalariga oid ma‘lumotlar ham berilgan. Bularning barchasi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga xos bo‘lgan xalqaro hayotning barcha sohalaridagi ishtiroki to‘g‘risida tasavvur olish imkonini beradi.

Bundan tashqari E.Z.Nuriddinov 2021 yilda nashr etilgan monografiyasida esa asosan yangi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini ortib borishi, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik aloqalarining kuchaytirilishi, siyosiy liderlarning tashriflari, erishilgan natijalar, tashqi siyosatga oid qabul qilingan yangi huquqiy asoslar o‘z aksini topgan. Bundan tashqari Yangi O‘zbekistonning xalqaro tashabbuslarini jahon miqyosdagi e‘tirofi, Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyalari doirasidagi samarali islohotlarga ham batafsil to‘xtalib o‘tgan[20].

Ushbu masalaga oid ilmiy tadqiqotlar orasida M.Babaxodjeyevning ilmiy ishlari ancha salmoqli bo‘lib, uning “Suveren O‘zbekiston Ichki va tashqi iqtisodiy siyosat masalalari” nomli monografiyasida O‘zbekiston Respublikasining agrar sohadagi siyosatini tarixiy va hozirgi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari keng yoritib berilgan. Bundan tashqari, monografiyada mamlakat barqarorligi va fuqarolarning tinchligini ta‘minlashning muhim negizi bo‘lgan millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarga alohida to‘xtalib, muhim manbalar asosida tahlil etilgan. Shu bilan birga, monografiyada tashqi siyosat masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Muallif jahon xo‘jaligi aloqalari masalalariga to‘xtalib, uning bozor munosabatlariga o‘tish jarayonlarida iqtisodiy qayta qurishlardagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib bergan.

L.Babaxodjeyevning 2007 yilda chop etilgan “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro madaniy-gumanitar hamkorligi”[21] nomli monografiyasida ham bevosita xalqaro aloqalarning rivojlanish jarayonlariga e‘tibor qaratilgan. Muallif madaniy sohaning muhim tarmog‘i bo‘lgan tasviriy san‘at va amaliy bezak san‘at sohasidagi xalqaro aloqalarning o‘rnatilishi va rivojlanishi jarayonlarini tahlil qilgan. Shu bilan birga teatr, musiqa va kinematografiya sohalaridagi hamda o‘zbek xalqining madaniy-ma‘rifiy merosini saqlash, qayta ta‘mirlashni, himoyalash va ommalashtirishga yo‘naltirilgan xalqaro sheriklik aloqalari bilan bog‘liq masalalarni tadqiq qilgan. Asarda O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning nodavlat jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish masalalariga ham e‘tibor qaratgan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining integrasiyasi tajribasini Markaziy Osiyodagi integrasiya jarayonlariga tadbiq etishi borasida Sh.Arifxanovning “Markaziy Osiyo: bugun va istiqbolda” nomli monografiyasida fikr yuritilgan[22]. Jumladan, unda barcha mintaqa davlatlari manfaatlari hisobga

olingan holda, muzokaralar va muayyan murosallarni topish orqali, Markaziy Osiyo davlatlari o'z integrasiyasida umumiy fikrga kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Biroq Markaziy Osiyo mamlakatlarida kuchli prezidentlik boshqaruv shaklini demokratiyaning G'arb modeli bilan birlashtirish qiyin. Kuchli hukumat o'z vakolatlarining muhim qismini asta-sekin kuchli fuqarolik jamiyatiga topshiradigan o'tish davri zarur deya ta'kidlagan. Monografiyada har qanday integrasiya ayrim suveren huquqlardan ayrishi, ammo istiqbolda hozirgi globallashtirilgan davrda yuzaga kelayotgan milliy muammolarni va ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy tahdidlarni faqat integrasiya yo'li bilan yechish mumkinligi ta'kidlanib, bundan boshqa yechimi yo'q deya fikr bildirilgan.

Muallif Yevropa ham aynan shu qiyinchiliklarni bosib o'tish orqali hozirgi farovonlikka yetganligini ham alohida ta'kidlaydi. Albatta, bu borada O'zbekiston tomonidan dastlabki qadamlar tashlangan, "kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati" g'oyasi doirasida ko'plab amaliy ishlar qilindi. Aslida Markaziy Osiyoda integrasiya jarayonlarini kuchaytirishga O'zbekiston Respublikasi tomonidan ko'plab g'oya va takliflar olg'a surilgan va bu hamon davom etmoqda.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini ortib borishi, taraqqiyot etgan mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar, jumladan Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi masalalari M.Rahimovning 2016 yilda nashr etilgan "O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining dunyoning yetakchi davlatlari bilan o'zaro munosabatlarining zamonaviy tarixi" monografiyasida to'xtalib o'tgan[23]. Muallif Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi uchun Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik tashqi siyosatining asosiy va muhim yo'nalishi ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga o'tgan davrdagi hamkorlik munosabatlarining uchta bosqichga bo'ladi. Bundan tashqari Yevropa Ittifoqining turli loyihalari, jumladan, TEMPUS, Erasmus Mundus, Traseka, Bomka kabi loyihalarni Markaziy Osiyo hududlarida amalga oshirilishi masalalariga ham alohida to'xtalib o'tgan. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi savdo munosabatlari, ayniqsa so'nggi yillarda yevropalik investorlar ishtirokidagi korxonalarini ortib borayotganligi statistik ma'lumotlarni qiyoslash orqali ko'rsatib bergan. Asarda muallif e'tibor qaratgan yana bir muhim jihat bu – Markaziy Osiyodagi integrasiya jarayonlaridir. Bunda albatta, Yevropa Ittifoqi va ASEAN tashkilotlarini tajribasi, Markaziy Osiyo davlatlari integrasiyasi uchun yaxshi model bo'lishi mumkinligini yozadi. Va albatta, bunda mahalliy o'ziga hosliklarni hisobga olish orqali ma'lum natijalarga erishish mumkinligini ham nazardan qochirmagan.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar, diplomatik munosabatlar va xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan I.Mavlonovning "Iqtisodiy diplomatiya va xavfsizlik"[24] asarida dunyodagi taraqqiyot etgan mamlakatlar, jumladan Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniyaning taraqqiyot tajribalari hamda Yevropa Ittifoqining mintaqaviy integrasiya jarayonlari haqida tahliliy fikr yuritgan. Asarning yana bir qimmatli tomoni shundaki, unda nufuzli moliya tashkilotlari, banklar, integrasion uyushmalarning iqtisodiy munosabatlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Muallif iqtisodiy diplomatiya haqida fikr yuritarkan, uning xavf xatarlari haqida ham mulohaza yuritadi. Shu bilan birga O'zbekistonning jahondagi yirik iqtisodiy uyushmalar bilan hamkorligi masalalariga alohida urg'u qaratgan. Jumladan, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo Taraqqiyot banklari bilan samarali hamkorlik aloqalari, amalga oshirilayotgan loyihalar miqdori, investitsiya kiritilgan sohalar qamrovi va natijalari haqida batafsil ma'lumot bergan.

Yevropa Ittifoqining kengayishi, unga a'zo davlatlar sonining ortib borishining iqtisodiy jihatlari, modellashtirish masalalari R.Dalimovning "Xalqaro iqtisodiy integratsiyalarni modellashtirish" monografiyasida batafsil yoritilgan[25]. Muallif dunyodagi iqtisodiy integrasiya jarayonlarini ilmiy jihatdan o'rganib, tahlil etgan. Shu bilan birga Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotini tadqiq qilarkan, uning iqtisodiyoti doimiy ravishda o'sish ko'rsatkichlarida bo'lganligini bayon qiladi. Shu bilan birga, muallif O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy Ittifoqi tarkibiga integrasiyalashuvini ham o'z nuqtai nazarida ilmiy tahlil etib, juda optimistik ya'ni respublika yalpi ichki mahsulot hajmi uch barobarga oshishi mumkin degan xulosaga keladi.

Demak, yuqorida olimlar va ekspertlar olg'a surayotgan mintaqaviy integrasiya uchun O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev taklifi bilan 2017 yilda tashkil etilgan yangi formatdagi "Markaziy Osiyo davlatlari maslahat uchrashuvi" platformasi balki uzoq kutilgan integrasiya uchun

xizmat qilsa ajab emas. Shu bilan birga, R.Dalimovning optimistik xulosalariga qo‘shilmaydigan mutaxassislar ham bor. Ayrim ekspert va siyosatchilar Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik masalasiga juda skeptik qarashmoqda[26]. Jumladan, O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan bog‘liq loyihalarining kelajagi borasidagi havotirlarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, 2020 yil 19 mayda Yevroosiyo Oliy iqtisodiy kengashi yig‘ilishida taklif qilingan Yevroosiyo iqtisodiy integratsiyasi rivojlanishi strategiyasi loyihasidagi ba‘zi punktlar, xususan, a‘zo davlatlarning uchinchi mamlakat bilan savdo kelishuvlarida Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi vakili ishtiroki masalasi milliy hukumatlarning suvereniteti cheklanishiga olib kelishiga shubha qoldirmagan bo‘lsa, shuningdek, komissiya vakolatlariga sog‘liqni saqlash, ta‘lim va fan sohalarini qamrab olish taklifi Ittifoqning asl maqsadalaridan chalg‘ib ketayotganini ko‘rsatadi. Biroq, O‘zbekiston iqtisodiy manfaatdorlikni ko‘zlagan holda 2020 yilda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kuzatuvchi sifatida kirdi[27].

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamkorligi va ularning huquqiy normalariga mos kelish masalalari bir qator huquqshunos olimlar tomonidan yaratilgan asarlarda o‘z ifodasini topgan[28]. Masalan, R.Hakimov o‘z monografiyasida O‘zbekistonning o‘tmishidagi tarixiy voqealarga murojaat qilib, BMTning tashkil topishi va rivojlanish bosqichlarini tarixiy dalillar asosida kuzatib, tahlil qilgan[33]. Ular orasida, ayniqsa, H.Yunusov tomonidan yozilgan maqolalarda Yevropa Ittifoqi bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslariga e‘tibor qaratilgan[29].

O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligining ayrim qirralari hamda xalqaro hamkorlik masalalarining ayrim tomonlari ilmiy jurnal va to‘plamlarda chop etilgan maqolalarda ham o‘z aksini topgan[30].

Yangi O‘zbekistonning dunyo hamjamiyati uchun qayta ochilishi, mamlakatdagi ulkan islohotlar, tashqi siyosatdagi o‘zgarishlar haqida yevropalik ekspertlar ham turkum maqolalar yozishmoqda[31]. Jumladan, Ispaniyalik professor Karlos Uriartening “O‘zbekiston tashqi siyosatida yuksalish ro‘y bermoqda” nomli maqolasida O‘zbekistonning pragmatik tashqi siyosati, tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik, hamkorlik va mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi o‘rni haqida to‘xtaladi[32]. Jumladan, G‘arbdagi yirik iqtisodiy ilg‘or mamlakatlar bilan ikki tomonlama sheriklikni kengaytirish yo‘lidagi harakatlarini ijobiy baholaydi.

4. Xulosa:

O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan xalqaro hamkorligi va tashqi siyosat masalalariga oid mahalliy adabiyotlar, monografiyalar va ilmiy-tadqiqotlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan taxlili quyidagi xulosalarga kelish imkoniyatini berdi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillaridagi rivojlanishi tarix fanida tashqi siyosat va xalqaro hamkorlik masalalarini o‘z ichiga olgan yangi yo‘nalish yaratdi. Bu esa O‘zbekiston tarixshunoslik ilmini ushbu o‘rganilayotgan masalada keng yoritilishini ta‘minlab beradi va jahon hamjamiyatida zamonaviy O‘zbekiston davlatining aniq o‘rni qanday ekanligi haqida ob‘ektiv fikr hosil qiladi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar va shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi bilan olib borayotgan ko‘p tomonlama hamkorlik jarayonlarini ilmiy jihatdan to‘laqonli yoritish va batafsil o‘rganish tendensiyasini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, respublika tarix fanida hosil bo‘lgan ilmiy tendensiyalar ko‘plab yosh tadqiqotchilarni ushbu masalaga oid ilmiy izlanishlar olib borishga yo‘l ochmoqda.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

1. Жўраев С. А., Касымова Н. А. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Ташкент: Академия, 2008. – 320 с. (Joraev S. A., Kasymova N. A. Current international relations issues. - Tashkent: Academy, 2008. - 320 p.)

2. Шарапова С.Ш. Внешняя политика Республики Узбекистан: культурно-исторический и социальный факторы. – Ташкент: Адолат, 2000. – 203 с.(Sharapova S. Sh. Foreign policy of the Republic of Uzbekistan: cultural, historical and social factors. – Tashkent: Adolat, 2000. – 203 pp.)

3. Гуломов Х.Г., Холлиев А.Г. Международные связи Республики Узбекистан с Великобританией и США (1991–2001гг). – Ташкент: Университет, 2002. – 118 с. (Gulomov Kh. G., Holliev A. G. International relations of the Republic of Uzbekistan with Great Britain and the USA (1991–2001). – Tashkent: University, 2002. – 118 p.)
4. Кирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент: Фан, 2004. – 280 б. (Kyrgyzboev A. International cooperation of the Republic of Uzbekistan with Asian countries. - Tashkent: Science, 2004. - 280 p.)
5. Далимов Р.Т., Махамбетова З., Худякова Н.К. Международная экономическая интеграция. – Ташкент: Университет, 2004. – 160 с. (Dalimov R. T., Makhambetova Z., Khudyakova N. K. International economic integration. – Tashkent: University, 2004. – 160 s.)
6. Нуриддинов Э.З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан // Монография / – Тошкент: “Инновация-Зиё”, 2021, – 398 с. (Nuriddinov E.Z. Formation and further development at the stage of renewal of the country of non-political activities of the Republic of Uzbekistan // Monograph / – Tashkent: “Innovation-Ziyo”, 2021, – 398 p.)
7. Бабаходжаев М. Суверенный Узбекистан. Вопросы внутренней и внешнеэкономической политики. – Ташкент: ТГИВ, 2004. – 336 с. (Babakhodzhaev M. Sovereign Uzbekistan. Issues of domestic and foreign economic policy. – Tashkent: TGIV, 2004. – 336 p.)
8. Сафоев С. Марказий Осиёда геосиёсат. – Тошкент: ЖИДУ, 2005. – 260 б. (Safiev S. Geopolitics in Central Asia. - Tashkent: JIDU, 2005. - 260 p.)
9. Бабаходжаева Л. Международное культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистан. – Ташкент: Фан, 2007. – 199 с. (Babakhodjaeva L. Mejdunarodnoe kulturno-humanitarnoe sotrudnichestvo Republic of Uzbekistan. - Tashkent: Science, 2007. - 199 p.)
10. Кучаров Ч. Марказий Осиёнинг минтақавий интеграцион жараёни муаммолари. (геосиёсий таҳлил тажрибаси) – Тошкент: Фан, 2008. – 203 б. (Kucharov Ch. Problems of the regional integration process of Central Asia. (geopolitical analysis experience) - Tashkent: Fan, 2008. - 203 p.)
11. Хакимов Р. Узбекистан и Организация Объединенных Наций (3-е издание, дополнение). – Ташкент: 2006. – 320 с. (Khakimov R. Uzbekistan and the United Nations (3rd edition, supplement). – Tashkent: 2006. – 320 p.)
12. Рахимов М. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии. – Ташкент: Янги нашр, 2011. – 230 с. (Rakhimov M. International cooperation of Uzbekistan in the context of ensuring stability and sustainable development in Central Asia. – Tashkent: Yangi Nashr, 2011. – 230 p.)
13. Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. – Ташкент: Шарқ, 2005. – 464 с. (Alimov R. Central Asia: community of interests. – Tashkent: Shark, 2005. – 464 p.)
14. Арифханов Ш. Центральная Азия: настоящее и будущее геополитика, геоэкономика, безопасность. – Ташкент: Шарқ, 2012. – 245 с. (Arifkhanov Sh. Central Asia: present and future geopolitics, geoeconomics, security. – Tashkent: Shark, 2012. – 245 p.)
15. Мавланов И. Экономическая дипломатия и безопасность. – Ташкент: УМЭД, 2010, – 150 с. (Mavlanov I. Economic diplomacy and security. – Tashkent: UWED, 2010, – 150 p.)
16. Фармонов Р., Жўраев Қ. Халқаро муносабатлар тарихи. – Тошкент, 2013, – 176 б. (Farmonov R., Joraev Q. History of international relations. - Tashkent, 2013, - 176 p.)
17. Мирзаев Ғ. Р. Ўзбекистон ва Туркменистон ҳамкорлиги. / Монография/. – Тошкент: “Инновация-Зиё”, 2021, – 178 б. (Mirzaev G' R. Cooperation between Uzbekistan and Turkmenistan. / Monograph/. - Tashkent: "Innovation-Ziyo", 2021, - 178 p.)
18. Юнусов Ҳ. Европа Иттифоқи ва Марказий Осиё: ҳамкорлик ва шерикчилик стратегиясидан – кенгайтирилган шерикликнинг янги имкониятлари сари. – Тошкент: “Lesson press”, 2023. – 416 б. (Yunusov H. The European Union and Central Asia: From a

Strategy of Cooperation and Partnership - Towards New Opportunities for Enhanced Partnership. - Tashkent: "Lesson press", 2023. - 416 p.)

19. Нуриддинов Э.З. Стратегия внешней политики Узбекистана на этапе обновления страны // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 2020. - № 3-4. – С. 51-53. (Nuriddinov E.Z. Foreign policy strategy for Uzbekistan at the stage of reconstruction // Obshchestvennyye nauki v Uzbekistane. - Tashkent, 2020. - No. 3-4. - S. 51-53.)

20. Нуриддинов Э.З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан // Монография / – Тошкент: “Инновация-Зиё”, 2021, – С. 398. (Nuriddinov E.Z. Formation and further development at the stage of renewal of the country of foreign policy activity of the Republic of Uzbekistan // Monograph / – Tashkent: “Innovation-Ziyo”, 2021, – P. 398.)

21. Бабаходжаева Л. Международное культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистан. – Ташкент: Фан, 2007. – 199 с. (Babakhodzhaeva L. International cultural and humanitarian cooperation of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Fan, 2007. – 199 p.)

22. Арифханов Ш. Центральная Азия: настоящее и будущее. – Ташкент, 2010. – С. 58. (Arifkhanov Sh. Central Asia: present and future. – Tashkent, 2010. – P. 58.)

23. Рахимов М. Современная история взаимоотношений Узбекистана и стран Центральной Азии с ведущими государствами мира. – Ташкент: Адабиёт учқунлари, 2016. – 224 с. (Rakhimov M. Modern history of relations between Uzbekistan and the countries of Central Asia with the leading states of the world. – Tashkent: Adabiyot uchkunlari, 2016. – 224 p.)

24. Мавланов И. Экономическая дипломатия и безопасность. – Тошкент: 2010, – 150 с. (Mavlanov I. Economic diplomacy and security. – Tashkent: 2010, – 150 p.)

25. Далимов Р. Т. Моделирование международной экономической интеграции. – Ташкент: Университет, 2006. – 151 с. (Dalimov R. T. Modeling of international economic integration. – Tashkent: University, 2006. – 151 p.)

26. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси 75 – сессиясида сўзлаган нутқини ўрганиш ва кенг жамоатчилик ўртасида тарғиб қилиш бўйича ўқув қўлланма. – Тошкент: “Маънавият”, 2021. – Б.158. (Instructional guide on learning and publicizing the speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 75th session of the United Nations General Assembly. - Tashkent: "Spirituality", 2021. - P.158.)

27. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: “O‘zbekiston nashriyoti” ДУК, 2021. – В. 45. (Mirziyoev Sh.M. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. - Tashkent: "Uzbekistan publishing house" DUK, 2021. - P. 45.)

28. Саидов А. Х. Халқаро ҳуқуқ. – Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси” нашриёти, 2001. – Б. 320. (Saidov A. X. International law. - Tashkent: Writers' Union of Uzbekistan "Literary Fund" publishing house, 2001. - P. 320.)

29. Юнусов Ҳ. Европа Иттифоқи конституционализи // “Замонавий конституционализм: хорижий ва миллий тажриба” мавзудаги халқаро конференциянинг материаллари тўплами. – Тошкент, 2021. – Б. 147-152. (Yunusov H. Constitutionalism of the European Union // Collection of materials of the international conference on "Modern constitutionalism: foreign and national experience". - Tashkent, 2021. - P. 147-152.)

30. Худойкулова Л. С. Программа ТАСИС – первые шаги // Общественное мнение. Права человека. – Тошкент, 2000. – № 1,2. – С. 43-48. (Khudoykulova L. S. The TESIS program is the first step // Obshchestvennoe mnenie. The right person. - Tashkent, 2000. - No. 1,2. - P. 43-48.)

31. Odiljonovich, I. F. (2022). The Role Of Art Exhibitions In The Development Of Cultural Relations Between Uzbekistan And The European Union. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1522-1524.

32. Карлос Уриарте. “Ўзбекистон ташқи сиёсатида юксалиш рўй бермоқда // Фуқаролик жамияти. – Тошкент, 2018. – № 1. – С. 90-91.; (Carlos Uriarte. "Uzbekistan's foreign policy is on the rise // Civil Society. - Tashkent, 2018. - No. 1. - S. 90-91.)

33. Исматуллаев, Ф. Uzbekistan cooperation with the European Union in the trade-economic and social-humanitarian spheres (on the example of Bulgaria). О‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2020,[1/6] issn 2181-7324. (Ismatullaev, F. Uzbekistan cooperation with the European Union in the trade-economic and social-humanitarian spheres (on the example of Bulgaria). News of the National University of Uzbekistan, 2020, [1/6] isn 2181-7324.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000